

GO'ZA YETISHTIRISHDA UCHRAYDIGAN BEGONA O'TLAR HAQIDA MA'LUMOT VA ABONE SUPER GERBITSIDI QO'LANILISHI BO'YICHA TAVSIYALAR

Mamatqulov Romazon Ziyodullayevich
ToshDAU, magistranti.
mamatqulovramazon@gmail.com

Umarova Z.T
ToshDAU, dotsent.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Go'za yetishtirishda uchraydigan begona o'tlar haqida ma'lumot va Abone Super gerbitsidi qo'lanilishi bo'yicha tavsiyalar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlari: G'o'za, gerbisid, qishloq xo'jaligi, begona o'tlar, dala, o'sadigan.

Annotation. This article provides information on common weeds in cotton production and the effects of using Abone Super Herbicide..

Key words: Cotton, herbicide, agriculture, weeds, field, growing.

Аннотация. В этой статье представлена информация о распространенных сорняках в производстве сорта Гоza и о влиянии гербицида Абоне Супер.

Ключевые слова: Хлопок, гербицид, сельское хозяйство, сорняки, поле, выращивание.

Qishloq xo'jaligi ekinlari maydonlarida begona o'tlarga qarshi kurash tadbirlari hozirgi davr dehqonchiligining dolzarb mavzularidan biridir.

Xozirda dunyoning 85 ta mamlakatida 33 mln. gektar maydonda paxta etishtirilib, 26 million tonna atrofida hosil olinmoqda. Dunyo dehqonchiligida 3000 dan ortiq turdagi begona o'tlar tarqalgan bo'lib ulardan 1700 turi juda katta iqtisodiy zarar keltirib, shulardan 200 dan ortiq turi asosiy qishloq xo'jalik ekinlari bilan kuchli raqobatda bo'ladi. Begona o'tlarga qarshi agrotexnikaviy va kimyoviy kurash tadbirlarini uyg'unlashgan holda olib borish AQSH, Braziliya, Xitoy, Avstraliya, Xindiston, Pokiston, Germaniya, Janubiy Koreya, Rossiya va boshqa davlatlarda yuqori natijalarga erishilmoqda.

Respublikamizda g'o'za parvarishida qo'llaniladigan samarali gerbitsidlarni ta'siri hamda tuproq unumdorligi va paxta hosildorligini oshirishni ta'minlovchi usullari bo'yicha tadqiqotlar olib borish muhimdir. O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Haraqatlar strategiyasida "3.3. qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchilrivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat havfsizligini yanada mustahkamlash ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish"

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 martdagi PQ-4633-son [qaroriga](#) muvofiq Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida. PF-5853-son *farmoniga muvofiq* zamonaviy texnologiyalarni

qo'llash natijasida ishlab chiqarishda ertagi, sifatli va haridorgir paxta tolasi etishtirish uchun har bir g'o'za navi bo'yicha agrotexnik tadbiri choralarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. G'o'za va g'o'za majmuidagi ekinlarni etishtirish agrotexnikasi bo'yicha olib borilgan tajribalar natijalariga ko'ra, ushbu tajribalarning asosiy maqsadi yalpi mahsulot ishlab chiqarishni 30 foizga ko'paytirish, ishlab chiqarish xarajatlarini esa 20 foizga kamaytirishga qaratilgan hamda qishloq xo'jaligi texnikasi, yonilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'it, urug'lik, shuningdek, kimyoviy va biologik himoya vositalari bilan ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 20 dekabrda 1025 sonli qarorida hamda 2020 yil 10 yanvardagi 03/1-1769 sonli 2020 yilda qishloq xo'jalik ekinlarni etishtirish chora tadbirlari dasturiga asosan 2020 yilda jami 1033.6 ming gektar maydonlarda paxta etishtirish belgilangan.

Qishloq xo'jaligi ekinlari orasida o'sadigan begona o'tlar hosil miqdori va sifatini pasaytiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Dalalarda bajariladigan ishlarning asosiy qismini begona o'tlarni yo'qotishga qaratilgan tadbirlar tashkil qiladi. Agrotexnik kurash choralari, almashlab ekish va gerbitsidlardan uyg'unlashgan holda foydalanilmasa dalalarni begona o'tlardan toza bo'lishiga erishib bo'lmaydi. Bunda gerbitsidlarni qo'llash eng samarali vosita hisoblanadi. Hozirgi davrda sug'oriladigan erlarda gerbitsidlardan foydalanish kamayganligi tufayli begona o'tlar miqdori yildan-yilga ko'payib bormoqda. Begona o'tlarni yo'qotish hamda ularning ko'payishini oldini olishda almashlab ekishni to'g'ri tashkil etish va samarali gerbitsidlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Ekin maydonlarini ajriq, g'umay, qo'ypechak va salomalaykum kabi begona o'tlar bilan kuchli ifloslangan dalalarni o'z vaqtida begona o'tlardan toza bo'lishida gerbitsidlarni qo'llash eng samarali usul hisoblanadi. Chunki, kimyoviy preparatlarni qisqa vaqt ichida katta maydonlarda qo'llash mumkin. YA'ni gerbitsidlardan foydalanish dehqonchilikning intensiv elementlaridan biri hisoblanadi. Respublikamizda gerbitsidlarni qo'llashda atrof-muhitni muxofaza qilishga katta e'tibor berilmoqda. Bu yo'nalishda kam miqdorda ishlatib yuqori samaraga erishish imkonini beradigan gerbitsidlarni qo'llash asosiy o'ringa chiqmoqda. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng kam me'orda yaxshi samara beradigan gerbitsidlarni sotib olish imkoni tug'ildi Raundap, Zellek super, Pantera, Fyuzilad, Nabukabi preparatlar ana shular jumlasidan hisoblanadi. Bundan tashqari gerbitsidlarni ketma-ket qo'llash, navbatlab qo'llash, aralashmalaridan foydalanish ham kimyoviy kurash choralarining samaradorligini oshirishni ta'minlaydi. SHu sababli biz ta'sir dorasi har xil bo'lgan gerbitsidlarni ketma-ket qo'llashning samaradorligi bo'yicha g'o'za ekilgan maydonlarda tadqiqotlar olib bordik.

Paxtadan yuqori xosil olishda g'o'zani parvarishlash majmuidagi kompleks agrotexnik tadbirlar ichida mamlakatimizning turli tuproq-iqlim sharoitlariga mos maqbul qo'chat qalinligini ta'minlash, ko'chatlarni maydonda to'g'ri joylashtirish

xamda oziqa rejimini ishlab chiqish dalalarda begona o'tlarga qarishi kurashish dolzarb masala hisoblanadi.

Bunda o'simlikda kechadigan fotosintetik jarayonlar tezlashadi, o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi kuchayadi, oxir oqibatda g'o'zadan ertangi, yuqori va sifatli paxta xosili olishga erishiladi.

G'o'za parvarishida agrotexnik tadbirlarni hamda g'o'zani biologik xususiyatlarini hisobga olmasdan o'tqazish paxta hosilini keskin kamayishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz o'z oldimizga paxta etishtirishda begona o'tlarga qarshi gerbitsidlarni qo'llash usullarini ishlab chiqishni g'o'za hosildorligiga ta'sirini ilmiy asoslashni maqsad qilib qo'ydik.

Respublikamizning 80-90 foiz sug'oriladigan maydonlari ko'p va bir yillik begona o'tlar bilan yuqori darajada zararlangan. Ayniqsa yo'qotishga ko'p kuch va mablag' talab etadigan: qamish, g'umay, ajriq, qo'ypechak va boshqalar bugungi kunda sug'oriladigan maydonlarda ko'p zarar yetkazmoqda. Respublikamizda paxta yetishtiriladigan dalalarida juda ko'plab har xil turdagi bir yilliklardan: yovvoyi gultojixo'roz (*Amaranthus retroflexus*), oq sho'ra (*Amaranthus albus*), eshaksho'ra (*Amaranthus blitum*), shamak (*Echinochloa crus galli*), burgan (*Artemisia annua*), ismaloq (*Spinacia turkestanica*), ituzum (*Solanum nigrum*), jag'-jag' (*Capsella bursarastoris*), qurtena (*Sisymbrium loeselii*) chaqamiq (*Galium apazine*): ikki yilliklardan: tuyaquyruq (*Carduus nutaus*), tlaspi (*Thlaspi arvense*): ko'p yilliklardan: qoqio't (*Taraxacum vulgare*), sachratqi (*Cichorium intubus*), otquloq (*Rumex acetosella*), g'umay (*Sorghum Halepense*), ajriq (*Cynodon dactylon*), qo'ypechak (*Convolvulus arvensis*), lattatikan (*Cirsium ochrolepideum*) va boshqa begona o'tlar tarqalgan bo'lib, ular chigitni unib chiqishidan tortib to paxta hosilini yig'ishtirib olishgacha bo'lgan davrlarda o'simlikning bir me'yorda o'sishi va rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Ular suv, yorug'lik, oziq moddalardan va boshqa tashqi muhit omillaridan juda yaxshi foydalanadi, o'g'itlar tarkibidagi oziq moddalarni o'zlashtirish ko'rsatkichini 30-40 foizga, paxta hosilini 15-20 foizgacha kamaytirib, tolaning sifatini buzadi, paxtazorlarda turli xil kasallik, hashorat va zararkunandalarni tarqalishiga sababchi bo'ladi.

Ko'p yillik begona o'tlar haqida ma'lumot:

– **Ajriq** asosan sug'oriladigan yerlarda uchraydi. Bo'yi 10-50 sm gacha boradi. Ildizi 1,5 metr chuqurlikgacha yetadi, lekin asosiy massasi 10-20sm tuproqda joylashgan bo'ladi. Iyun-iyul oylarida gullaydi va sentabr oyida urug'laydi. Ajriq tuproqni urug'i, ildizlari va ildiz bachkilarini orqali tarqaladi va ifloslantiradi. O'rtacha 1 gektar maydonchada ajriq ildizi uzunligi 800 km tashkil etadi. 1-3sm teng bo'lgan ildiz nam tuproqda tez rivojlanadi va ko'payadi.

– **G'umay** ko'p yillik g'allasimon, asosan sug'oriladigan va lalmi yerlarda uchraydigan ildiz poyali begona o't. Mart-aprel oylarida unib chiqadi hamda ildiz va ildiz bachkilarini yordamida ko'payadi. Uning ko'p yillik ildiz poyasi tuproq ostida 10-40 sm chuqurlikka joylashadi, asosiy ildiz 4-5 metr chuqurlikgacha

boradi. Bo'yi 100-150 sm gacha boradi. Iyun oyidan boshlab to kech kuzgacha gullaydi, bir yaxshi rivojlangan tupi 100000 donagacha urug' beradi, mevasi iyul oyida pisha boshlaydi. G'umay kechki sovuq tushgunga qadar o'sadi. O'rtacha 1 kv.m maydonchada 3-4 dona bo'ladi.

– **Salomalaykum** ko'p yillik begona o't bo'lib, asosan sug'oriladigan yerlarda uchraydi. Urug'i martdan boshlab to kech kuzgacha unib chiqadi. Gullashi va meva berishi yozning ikkinchi yarmidan boshlanadi. Ko'payishi asosan urug'lari hamda tunganaklari orqali ko'payadi, bir dona o'simlik vegetatsiya davrida 10000 dona urug' va 100 tagacha tunganak hosil qiladi. Begona o't g'o'za, sabzavot va boshqa qishloq xo'jalik ekinzorlarida o'rtacha 1 kv.m maydonchada 5-8 dona bo'lib o'sadi. Paxta dalasida 200-205 dona oyila, tunganak bo'lsa tekis ko'payishi hisobiga 2-3 yil davomida 2 gektar maydoni to'liq egalaydi.

– **Qamish** ko'p yillik g'allasimon begona o't. Asosan ariq bo'ylari, yo'l yoqalari, dala chetlari, katta-kichik zovur, latok atroflari hamda to'qayzorlarda uchraydi. Qamish aprel oyining oxirlarida o'sadi. Uning bo'yi 1-5 metrgacha bo'ladi, ildizi tuproqning ostiga 3,5 metrgacha boradi. Gullashi va urug' pishishi iyul-avgust oylarida kuzatiladi. bir tupdan vegetatsiya davrida 50000 dona urug' pishib to'kiladi. Qamish ildiz bachkilari 20 sm chuqurlikdan o'sib chiqa oladi.

– **Qo'ypechak** sug'oriladigan maydonlarda uchraydigan ko'p yillik, ikki pallalik begona o't. Mart oyida to kuzgacha urug'idan unib chiqadi va ildizi orqali ham ko'payadi. Ildizi baquvvat, tuproqqa 4-6 m chuqurlikkacha boradi. Iyul-oktabr oyida gullaydi va urug' beradi. Tuproqni urug'lari hamda ildizlari bilan ifloslantiradi, ekinlarga tirmashib o'sadi. Paxta yig'im-terimi muddatini va hosilini keskin pasaytiradi, ifloslantiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, g'o'za yetishtiriladigan dalalarda begona o'tlar tuproqqa solingan mineral o'g'itlardagi oziq moddalarning 20 foizigacha o'zlashtirib olishi mumkin. S. A. Gildievning (1970) aniqlashicha, g'o'zaning quruq massasida 1,2-2,2 foiz azot, 0,6-1,2 % fosfor va 1,5-2,4 % kaliy bo'lib, begona o'tlarda bu moddalarning miqdori mos ravishda 2,5- 4,5; 0,5-2,0 va 5,0 foizni tashkil qiladi. Suvni esa g'o'zaga nisbatan 2 baravar ko'proq o'zlashtiradi.

Ko'p yillik ilmiy izlanishlar natijalariga ko'ra, begona o'tlarning zarari hisobiga olinadigan hosilning kamayishi 10,3 % ni tashkil etadi yoki bu har yili 3,0 milliard so'mlik zarar demakdir. Jumladan, donli ekinlar 11,9 %, dukkakli don ekinlari 15,5, paxta 8,1 %, zig'ir 11,5 %, qand lavlagi 9,0 %, kartoshka 7,0% va sabzavot ekinlari 11,0 foizga kamayib ketadi. Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini, ya'ni qo'l mehnatini ,0-2,5 barobargacha (chopiq ishlarini 4-5 martagacha o'tkazish), yoqilg'i moylash materiallari xarajatlarini 10-15 foizga, mehnat unumdorligini pasayishiga, ishga qo'shimcha haq to'lashni 8-10 foizga oshishiga, paxta va don ekinlarning hosilini 11,8-24,5 % kamayishiga va sifati buzilishiga, o'z navbatida yetishtirilgan mahsulot tannarxini oshishiga sabab

Abone Super 5 EC gerbitsidini g'o'zada begona o'tlarga qarshi kurashishda qo'lash bo'yicha tavsiyalar.

1. "Royal Agro Science" kompaniyasi tomonidan registratsiyadan ўtkazmoqda
2. Сотувдаги номланиши, шакли - Abone Super 5 EC, суюклик
3. Abone Super 5 EC –бир паллали бегона ўтларга қарши қўлланилади
4. Таъсир этувчи моддаси –50г/л quizalofoh-P-ethyl
5. Таъсир этиш механизми – системалик таъсир этади
6. Қўллаш- летасимон ҳолда
7. Гербицид сепилган кун ва вақти –29 04 2021 г.
8. Сепиш аппарати типи, деянка майдони ва қайтариқлар сони

Abone Super 5 EC gerbitsidi suyuq suv eritmasi 50 g/l quizalofoh-P-ethyl ta'sir etuvchi modda, sistemalik ta'sirga ega bo'lgan gerbitsid bo'lib, g'o'za o'suv davrida qo'llaniladi, bir va ko'p yillik begona o'tlarni sonini kamaytirishga ega, samaradorligi 1-1,5 oy bo'lib, tuproqda qoldigi kuzatilmaydi, keyingi ekinlar uchun salbiy ta'siri kuzatilmagan. Gerbitsidni begona o'tlarni sonini kamaytirishda samadorligi oshirish uchun, uni sepiش vaqtida paydo bo'lgan va 10-15 sm balandlika ega bo'lganlarini yo'qotadi. Gerbitsidlarni yuqori samadorlikga ega bo'ladigan sharoit begona o'tlarni aktiv o'sib, rivojlanigan vaqti bo'lib, quruq va issiq havo va yetarli darajada tuproqdagi namlik bo'lishi lozim. Abone Super 5 EC gerbitsidi begona o'tlarni aktiv o'sadigan azolariga shimilib, tarkaladi, barglari va o'smalari orqali sepilgandan 4-8 soatdan so'ng ta'sir etadi, gerbitsidni obi-havo past kelgan vaqtda sepiش tavsiya etilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 martdagi PQ-4633-sonli "Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori. T.06.03.2020 y
2. Abdulkarimov D., Nurmatov SH. - Kuzgi bug'doydan keyin tuproqqa asosiy ishlov berish texnologiyalarini loviyaning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri. //Navlarni yangilash, joylashtirish va parvarishlash texnologiyasi. Toshkent, 2001. 9-10 b.
3. Aleev B.G.-Primenenie gerbitsidov v xlopkoseyuyey zone Uzbekistana. Toshkent, Fan, 1971. 108 b.
1. 4. Aliev A.M. Effektivnost kompleksnogo ispolzovaniya navoza i gerbitsida. J. Zemledelie – 2003, № 2, b. 20.
4. Aleev B.G. Napravlenie issledovaniy v oblasti gerbitsidov v xlopkovodstve. J. Xlopkovodstvo, 1960, № 3, 21-s.
5. Aleev B.G. Ispolzovanie gerbitsidov v borbe s sornyakami xlopkovoyh poley. (broshyura), Tashkent, 1963, 25-s.
6. Aleev B.G. Gerbitsidy i ix primeneniye v xlopkovodstve (broshyura), Tashkent, 1965, 28-s 49

Internet saytlari

7. <https://givoyles.ru>
8. <http://lex.uz>
9. www.wikipedia.org

2. 11 . <http://scholar.google.com>
3. 12. www.scopus.com
4. 19. www.elibrary.ru